

## MILLIY REALIYALARNING BADIY TARJIMADA IFODALANISHI (“O‘TGAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA )

**Boborahmatova Aziza Shuhrat qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti birinchi bosqich talabasi

**Shomuxammadov Xoliddin**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili integrallashgan kursi №3  
kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** O‘zbek tili milliy so‘zlar (realiyalar), qadriyatlarimizni anglatuvchi so‘zlarga boy bo‘lib, asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Ular tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki ular madaniyatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini, an‘analarini va hayot tarzini ifodalaydi. Har bir realiya turi o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va tarjima qilinganida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga ega.

**Kalit so‘z:** Realিয়া, “O‘tgan kunlar” tandir, chopon, to‘n, lingvokulturologiya, leksikologiya, semantika.

**Annotation.** The Uzbek language is rich in national words (realias), words that express our values, which have been passed down from generation to generation for centuries. They are important in the translation process, because they reflect the unique characteristics of our culture, traditions and way of life. Each types of realiya has it is own characteristics and difficulties in translation.

**Key words:** Realias, “The days gone by”, tandir, chopon, lingvoculturology, lexicology, semantics.

**Аннотация.** Узбекский язык богат национальными совами (реалиями), словами, выражающими наши ценности, передаваемые из поколения в поколение на протяжении веков. Они важны в процессе перевода, поскольку отражают уникальные особенности нашей культуры, традиций и образа жизни. Каждый вид реалии имеет свои особенности и сложности в переводе.

**Ключевые слова:** Реалия, “Минувшие дни”, тандир, чопон, тун, Лингвокультурология, Лексикология, Семантика.

Zamonaviy dunyoda tarjimonlar ilm-fan, biznes, xalqaro diplomatiya, tibbiyot va texnologiyalar kabi ko‘plab sohalarda faoliyat yuritadilar. Bu kasb nafaqat til bilimini, balki chuqur madaniy tushunchalarni, mantiqiy tafakkurni va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu kasb doimiy rivojlanish, ijodkorlik va texnik mahoratni talab qiladi. Agar biz turli tillar, madaniyatlar va insonlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashni istasak, tarjimonlik biz uchun eng mukammal kasb bo‘lishi mumkin. Jahon xalqlarining rivojlanishi natijasi ularning bir-birlari bilan aloqalari faqatgina qo‘shnichilik munosabatlari, moliyaviy jihatdan tovar almanishuvi, siyosiy aloqalar bilan chegaralanib qolmay, madaniy jihatdan ham aloqalarni mustahkamlashlari keyingi paytarning muhim fenomeniga aylandi. Buning natijasida xalqlar dunyo yuzasidagi hamasrlarining ruhiy kechinmalari va madaniy boyliklariga, ularning qadimiy ajdodlari yashan madaniy va ma‘naviy muhitga qiziq boshladilar. Bu aloqalarni mustahkamlashda endilikda badeiy tarjima yaratuvchilar, badeiy tarjimolarning zimmasiga katta mas‘uliyat yuklatildi. Bu masu‘uliyatni sidqidildan bajarish uchun tarjimon talay qiyinchiliklarga duch kelishi mumkil. Shulardan biri, tarjima jarayonida uchraydigan ba‘zi realiya birliklarini to‘g‘ri talqin qilish, iboralar ma‘nosini aniq

yetkazish hamda tarjimon betarafligini saqlash, alohida e'tiborni talab qiladi. Z.Madaminovanning so'zlariga ko'ra tarjima bu matn yoki badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga shunchaki o'girish emas, balki u asar ruhiyati, millat ruhini ikkinchi tilga asl holicha ko'chirishdir. Tarjimon esa ikki til o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Badiiy asar ruhini to'laligicha kitobxonga yetkazish tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchilik tug'diradigan narsa bu realiyalar hisoblanadi. Chunki realiya faqat bir millatga xos so'zni anglatib, uni boshqa millatlarda uchratmaymiz. [4:563] Realialar deganda ma'lum bir millat va elatga xos narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar va tushunchalar anglashiladi. Ularni boshqa tilga o'girishda tarjima tilining taraqqiyot darajasiga qarab katta-kichik muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolarning yechimi, ularning tasnifi va tavsifi tarjima nazariyasida o'rganilmoqda. o'zbek millati, xalqiga xos hayotni ifodalovchi realialarning tarjimada ingliz tilida berilishi haqida so'z ketar ekan, shuni aytish kerakki, tarjimonlar ularni ifodalashda turli usulidan foydalanishgan. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir.[7:41] Leksikologiya — tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi.[8]

Quyida Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romanining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasini tadqiq qilish orqali aniqlangan bir qator misollarni keltirib o'tamiz

Uzbek-oyim told one of the coming to hashar women to set fire in the *tandir*, came up to Zaynab asking: – "Is the *dasturhon* ready, dear?" – "Yes, it is. I think honey is not enough on the outside *dasturhon*". – "If it is not enough, go immediately to the storehouse and bring it, see to dough yourself, Oybodoq seems to be busy, the dough has already risen, and looked at *dasturhons* from daricha, – *dasturhons* look nice, don't forget patties", – Uzbek-oyim said and seeing Yusuf-hadji at the doorway, called him: – "Come here, please." Yusuf-hadji was wearing a white *doppi*, white part colored *ton* tied around the waist. Uzbek-oyim came up to him ... [2:309]

O'zbek oyim hasharchi xotindan biriga *tandirga* o't qo'yishni buyurdi-da, o'zi Zaynabning oldig'a keldi: — *Dasturxon*ing bitdimi, bolam? — deb so'radi. — Bitdi. Tashqarining asali kamga o'xshaydir. — Kam bo'lsa, darrav ombordan keragicha olib chiq, undan keyin xamiringga o'zing qara, Oybodoqning qo'li tegmas, xamir gup berib ketibdi, — dedi va darichadan ko'tarilib *dasturxon*larni kuzatdi, — *dasturxon*ing tuzik, varaqini esingdan chiqarma, — dedi va o'rta yo'lakda ko'ringan Yusufbek hojini o'ziga imladi. — Beri keling. Yusufbek hoji boshida oq *to'ppisi* va egnida oq olacha *to'ni* bilan ustidan belini bog'lagan edi. o'zbek oyim yonig'a sekin-sekin yurib keldi. [1:178]

"O'tkan kunlar" asrining ingliz tilidagi tarjimasidan olingan parchaga diqqatimizni qaratar ekanmiz ayrim o'zbek millatiga xos so'zlar tarjima qilinmay aslidek yozilgan va ushbu so'zlarning mazmun mohiyati ingliz tilida bir jumal orqali tushuntirilgan. Misol uchun *tandir* so'zi "earthenware stove for baking cake or bread" kabi izohlangan *dasturxon* esa, "a table-cloth with foodstuff on it" tarzida tushuntirilgan. O'zbek milliy kiyimlaridan biri bo'lgan *ton* "a national robe" deya izoh berilgan bo'lsada, "robe" so'zini ona tilimizga xalat deb tarjima qilamiz. Ya'ni chopon so'ziga

chet ellik kitobxonlarga tushunarli bo'lishi uchun izoh berilishiga qaramay, milliy so'z o'z mohiatini yo'qotib, asl ma'noni bera olmagan.

Give to her the newly made *kurpacha*, let them put it around *sandalwood*. And take out a large carpet, by the way, do we have any fruits in the house?" [2:31]

Anovi yangi qoplag'an ko'rpalarini ber, *tanchaga* o'shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi? [1:15]

Bu gapda ham yuqorida ko'rib o'tilgani kabi ko'rpacha va tancha so'zlari tarjima qilinmay ularga izoh berilganini kuzatishimiz mumkin. Ko'rpacha "Matt, long matters made of satin or silk" tancha esa, "handmade low table heater" tarzida berilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, har bir millatning shunday so'zlari boriki ularni na tarjima qila olamiz, ba'zilarini esa, na izoh orqali tushuntira olamiz, ularni muqobili bazida topilmaydi. Faqatgina shu elatning madaniyatini o'rganish, urf odatlariga bo'lgan qiziquvchanlik orqali so'zning mohiyati anglanadi. Bundan kelib chiqadiki tarjimonlik faqatgina tillarni balki madaniyatlarni ham bog'lovchi ko'prikdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
2. Abdulla Qodiriy. The days gone by novel. Translators: I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov.
3. Kurambayeva Malika Ravshanbekovna, Norboyev O'ktam Safarboyevich, "Realiya turlari: tahlil va tasnif" Iqro jurnali issue 02, 2025.
4. Madaminova Zarofat Shavkatjon qizi, "Realiyalar: asliyat va tarjima" Yangi O'zbekiston, Yangi Taraqqiyot jurnali dekabr 2025.
5. <https://rustudy.uz/uz/tarjimon-kasbi/>
6. Oymamatova Nilufar, Tarjimashunoslikdagi global muammolar: realiyalar, iboralar va tarjimonning betarafligi, june 21-22, 2025.
7. Qilichova Oyjon Matkarim qizi "Tilshunoslikda lingvokulturologiya fanining kelib chiqishiga oid qarashlar" VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 21.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>